

ONA TILI DARSLARIDA IBORALARNING O'QITILISHI BO'YICHA TAVSIYALAR

Muhammadiyeva Barchinoy Rustam qizi

ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi

muhammadiyeva2004@gmail.com

Annotatsiya : *Mazkur maqolada ona tili darslarida iboralarning o'qitilishi bo'yicha nazariy va metodik tavsiyalar beriladi. Iboralar mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning iboralar haqida tushunchaga ega bo'lishi va ularni qo'llay olish ko'nikmasini oshiradi.*

Annotation: *This article provides theoretical and methodological recommendations for teaching idioms in native language classes. The use of interactive methods in teaching the topic of idioms increases students' understanding of idioms and their ability to use them.*

Аннотация: *В статье даются теоретические и методические рекомендации по преподаванию фразеологии на уроках родного языка. Использование интерактивных методов при преподавании темы идиом повышает понимание идиом учащимися и их способность использовать их.*

Kalit so'zlar: *iboralar, metodlar, ko'rgazmalar bilan ishlash, singan tuxum.*

Keywords: *phrases, methods, working with exhibitions, broken egg.*

Ключевые слова: *фразы, методы, работа с выставками, разбитое яйцо.*

Kirish

Maktabda ona tili og'zaki va yozma nutqni biladigan, til unsurlaridan o'rinli foydalana oladigan, tom ma'nodagi savodli o'quvchilarni tayyorlashni ta'minlaydigan vosita tarzida o'rgatiladi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida faol ishtirok etishga

yordam beradi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi. O'zbek tili lug'ati tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir. Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan tashqari leksik ma'no ifodalaydigan turg'un birikmalar-iboralar ham mavjud. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, boshqa birikmalar bilan xuddi alohida so'z kabi munosabatda bo'ladi.

Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir. Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Biroq iboralarni o'zlashtirish o'rta umumiy ta'limda o'quvchilar uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradigan holatlar ham mavjud, chunki iboralarning o'zi to'g'risida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo umumiy o'rta ta'lim maktablari "Ona tili" darsliklaridagi (bunda amaldagi 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinf darsliklari nazarda tutildi)¹ matnlarida juda ko'plab iboralar uchraydi. Albatta, dars berish davomida iboralar ustida maxsus ish olib borilmoqda, yani berilgan lug'atlarda ayrim iboralar izohi berilgan. Ammo bu ish hamma vaqt ham zarur natijalarni bermiqda deb bo'lmaydi. O'rta maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilar yetarli iboraviy birliklar boyligiga ega bo'lmayotirlar. Buning sababi shundaki, iboralarni o'rganish tizimi hali maqsadga bo'ysundirilgan va qat'iy ishlab chiqilgan tizim darajasiga aylangan emas. Iste'molda ko'p qo'llanadigan hamda kam qo'llanadigan, ya'ni nisbatan bir muncha qiyin ma'noli va sodda ko'rinishli iboralarni o'rgatishga bir xil vaqt sarflanishi, iboralarga doir mashqlarni o'rganish xususiyati e'tiborga

¹ Ona tili 5 [Matn]: 5-sinf uchun darslik / N. Mahmudov va boshq. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot manba uyi, 2020. –191 b.

Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.

Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov va boshq. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.

Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov. – Toshkent: MCHJ «Tasvir», 2019. – 128-b

olinmaganligi iboralarni o'rganishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Iboralar nafaqat murakkab til hodisasi, balki o'rganilishi ham murakkabligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ona tilini o'qitish metodikasida fonetika, leksika, grammatikani o'qitish usullari haqida ko'plab ilmiy mulohazalar, tavsiyalar, ko'rsatmalar yaratilgan va yaratilmoqda. Ammo iboralarni o'qitishning usullari haqidagi tavsiyalar hali-hamon yetarli emas. Ona tilini o'qitish metodikasida iboralar o'quvchilarning nutq malakalarini o'stirish, so'zlarni o'rnida qo'llay olish nuqtaiy nazaridan o'rganiladi. Asosiy e'tibor nutqiy faoliyatni kuchaytirish tizimining noyob boyliklaridan biri bo'lgan iboralarni mumkin qadar ko'proq nutq iste'moliga kiritish malakasiga qaratiladi. Iboralarni o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar qilmoqda.

Metodist olim Asqar G'ulomov "O'quvchilar lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora, odatda, bir so'zga teng keladigan so'zlar qo'shilmasi bo'lib, u nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so'zlar bilan almashtirish yoki, aksincha, so'zlar o'rnida iboralarni qo'llash, iboralarning ma'nosini sharhlash, berilgan iboralarga yaqin ma'noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma'noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin²" – deb fikr bildirgan. O'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini oshirishda iboralarni nutqda qo'llay olishning ahamiyati katta. Iboralar ustida ishlash 5-sinfda boshlanadi. Bu mavzu bo'yicha materiallarga qo'shimcha tarzda mashq va topshiriqlardan foydalanish mumkin. E'. Muhammedovning "Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar" nomli maqolasida iboralar mavzusiga oid qo'shimcha topshiriqlar tavsiya etilgan. Iboralar bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni nafaqat 5-sinfda balki boshqa sinflarda ot, sifat, olmosh, fe'l kabi so'z turkumlari ustida ishlashda ham foydalanish mumkin. Bunday mashqlar o'quvchilarni izlanishga undaydi, darsga qiziqishini oshiradi va lug'atlar bilan

² A.G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarov, va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. —T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.

mustaqil ishlashga odatlantiradi. Bu maqolada o'quvchilarga qiziqarli bo'lgan mashqlar ularning bilimlarini mustahkamlaydigan mashq va topshiriqlar berilgan. "Iboralar" mavzusi ta'limi o'quvchilar uchun hamisha qiziqarli va e'tibortalab mavzu bo'lib qolaveradi. Iboralar tilimizda so'zlar bilan teng ishlatilaveradiki, bizlar ba'zan iborani qo'shma so'zdan yoki so'z birikmasidan farqlamaymiz³.

Ma'nosi va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhlash ma'no darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir⁴.

Quyida ba'zi bir topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Topshiriq. Gap juftlarida ajratilgan qismlar orasida qanday ma'no munosabatlari borligini aniqlang.

Xaridor xursand bo'ldi. Xaridorning chehrasi ochildi.

O'quvchilar quvonishdi. O'quvchilarning boshi ko'kka yetdi.

Sarvinoz bilan Sitora yaqin do'st. Raxima bilan Nafisaning oralaridan qil o'tmaydi.

Topshiriq. Berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtiring, ular yordamida gaplar tuzing.

Gapirmadi, toza, yuvosh, rahmdil, kuldi, qo'rqdi, chaqqon, ko'p gapirdi, quvondi.

Namuna: Gapirmadi – lom-mim demadi, ko'p gapirdi – jag'I ochildi kabi⁵.

Topshiriq. Ibora ifodalagan ma'no qatorini "Iboralar sandig'i" dan mosini tanlab to'ldiring⁶.

lapashang,

bemehr,

aralashmoq,

³ D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.- 424 b.

⁴ B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

⁵ A.G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarov, va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. —T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.

⁶ D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.- 424 b.

xafa, ...

xursand,

tanti,

ziqna,

gapirmaslik, ...

“Iboralar sandig‘i”dan

ammamning buzog‘i	burnini tiqmoq	bag‘ri tosh	ko‘ngli xira
fe‘li keng	terisiga sig‘maydi	dili xufton	og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadi
boshi osmonda	diydasi qattiq	og‘zi qulog‘ida	ko‘ngli yorishmagan
qovog‘i etagida	gapida turadigan	qovog‘i soliq	fe‘li tor
Burganing ko‘zini ko‘rgan	mum tishlamoq	qishda qor bermaydigan	lom-mim demaslik

Topshiriq. Iboralar mazmunini sharhlang, ularni avval ma‘nodoshlari, so‘ngra oddiy so‘zlar bilan almashtiring.

1. Gapi bir joydan chiqdi, og‘iz-burun o‘pishdi – kelishdi.
2. Dimog‘i chog‘ bo‘ldi, vaqti chog, chehrasi ochildi, og‘zi qulog‘iga yetdi, boshi osmonga yetdi...— xursand bo‘ldi⁷.

Iboralarni o‘qitishda quyidagi usul va metodlardan foydalansa yaxshiroq bo‘lardi. Ko‘rgazmalar bilan ishlash metodi. Mazkur metod illyustratsiya (rasmlar, chizmalar, jadvallardan foydalanish), demonstratsiya (videoproyektor, kompyuter texnikasi, kinolenta, televizor kabi texnik vositalardan foydalanish), ko‘rsatma (tabiiy predmetlardan, buyumlarning o‘zidan foydalanish) metodlarini o‘z ichiga oladi.

⁷ B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

Topshiriq. Quyida berilgan rasm asosida iboralarni toping.



metodi. Bunda tuxum rasmlarni chiqariladi yoki qo'lda chiziladi. Tuxumning bir tomoniga iboralar va ikkinchi tomoniga ma'nosi yoziladi. O'rtasidan qirqib chiqiladi. O'quvchilar tuxumdagi so'zlarni bir-biriga moslashtirgan holda bir butun qilishlari lozim.

“Do'stingni top” metodi. Konvertga iboralar va ma'nolari yozilgan kartochkalar aralash qilib solingan bo'ladi.

Sinfda 30 ta o'quvchi bo'lsa, demak, 30 dona kartochkalar bo'ladi: 15ta ibora, 15ta javob.

Sinfdagi har bir o'quvchi konvertdan ko'rmagan holatda kartochkalarni tortadilar. Birinchi, ibora tushgan o'quvchilar iborani o'qiydi, javobi qaysi o'quvchida bo'lsa o'sha do'sti savolga javob berishi kerak bo'ladi.

Bu metod o'quvchini fanga qiziqtirib, har bir savol uchun o'zi harakat qilishga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, leksemaga qaraganda, iboralar ma'nolarining hajmi, ko'p ma'noliligi bilan farqlanadi. Bu kabi holatlar iboralarni nutqqa olib kirish biroz qiyinchilikka uchrashi mumkin. Aksariyat o'quvchilar ularni o'z nutqida qo'llamaydilar. Sabab shundaki, o'quvchilar iboralarning ma'nolarini tushunib yetmaydi va fahmlay olmaydi. Bu esa iboralarni nutqdan chiqib ketish evaziga oddiy, sodda, qashshoq gapirishga

undaydi. Shu ma'noda iboralarni o'qitish va o'rganishning optimal metodikasini yaratish lozim. Iboralarni o'qitish bo'yicha bir qancha metodlar va usullar yaratilgan mumkin. Uni qay tartibda qo'llay olish esa mutaxassis ustozning qo'lida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ona tili 5 [Matn]: 5-sinf uchun darslik / N. Mahmudov va boshq. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot manba uyi, 2020. –191 b.
2. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.
3. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –224 b.
4. Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov va boshq. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.
5. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov. – Toshkent: MCHJ «Tasvir», 2019. – 128-b.
6. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
7. D.N. Yuldasheva. “O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
8. B.To'xliyev va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
9. E'tibor Muhammedova. “Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar” “Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 2008-yil 5 – son.